


KOSTETSKIY V.A., TANSIQBOYEVA G.M., RAHIMOV R.I.

KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT


Umumiy o'рта ta'lim maktablarining
5- sinfi uchun o'quv qo'llanma
I qism

*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan*



TOSHKENT
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»
2015

МАЖБУРИЯ
НУСХАДА



Mualliflar jamoasi:
Kostetskiy V. A., Tansiqboyeva G. M., Rahimov R. I.

Yuridik fanlar doktori, professori
M. Rustamboyev umumiy tahriri ostida

Metodist – *N. Ismatova*, Respublika Ta'lim markazi
Ijtimoiy fanlar bo'limi boshlig'i

Taqrizchilar: *S. Xidirov* – Yuridik fanlar nomzodi.
M. Najimov – Yuridik fanlar nomzodi.

SHARTLI BELGILAR:



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning
«Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning
«O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobidan



«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlash-
tirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»dan



O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasidan



O'tilgan mavzularni mus-
tahkamlash uchun savollar



Eslab qoling!



Mavzu bo'yicha beril-
gan topshiriqlar



Faollashtiruvchi savol
va topshiriqlar




Uyga topshiriq


O'quv qo'llanma Davlat dasturi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi standartlariga muvofiq tayyorlangan. Unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tushunchalari hammabop va maroqli tarzda bayon etilgan. O'quv qo'llanmasidagi ko'plab misollar va topshiriqlar ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan materialni oson o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashni kamol toptirish imkonini beradi.

ISBN 978-9943-979-52-9

© Kostetskiy V., 2014, 2015.

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2014, 2015.







O'quv qo'llanmada **Prezident Islom Karimovning** qonunchilik tashabbuslariga muvofiq **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga** kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar inobatga olingan.



KONSTITUTSIYA — ASOSIY QONUNIMIZ



1. Rasmlarga qarang. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'tirof etilgan qanday huquqlar ularda aks ettirilgan?

Dunyo ulkan, bepoyon va qiziqarlidir. Yangi narsalarni o'rganish, notanish voqealarni idrok qilish va anglashdan maroqliroq mashg'ulot ham topilmasa kerak. Buning esa ming-minglab yo'llari mavjuddir: mutolaa qilish, ilmiy-ommabop teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, tajriba-sinovlar o'tkazish, yangidan yangi odamlar bilan tanishish, u yoki bu masalani muhokama etish, sayohatga otlanish... Biz sizga Konstitutsiya —

mamlakatimiz Asosiy qonuni bo'ylab ajoyib sayohatga chiqishni tavsiya etamiz. Konstitutsiya, garchi hajman anchayin chog'roq hujjat bo'lsa-da, unga shunchalik ko'p bilim va donishmandlik jo etilganki, mazmuni butun boshli olam bilan qiyoslagulikdir.

Uzoq asrlar davomida bashariyat ming-minglab qoidalar va nizomlardan jamiyat hayoti uchun asosiylarini, o'ta muhimlarini tanlab oldi. Aynan ana shu tanlab olinganlari Konstitutsiya yaratilishiga poydevor bo'ldi. Konstitutsiyada bayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatliki, hech bir odam ularsiz yashay olmaydi, negaki inson har kuni duch keladigan muammolar hal etilishi ham ko'pincha mamlakat Asosiy qonuniga kiritilgan qoidalar va moddalarga bog'liqdir.



Mamlakatdagi boshqa qonunlar poydevori bo'lgani sababli Konstitutsiya davlatning Asosiy qonuni hisoblanadi.

Sayohat xaritasi

Konstitutsiya olami bo'ylab sayohatda yo'l boshlovchi bo'lguvchi bir kitobni qo'lingizga oldingiz. O'quv qo'llanmani o'rganib, biz tavsiya etgan yo'nalish bo'ylab yo'l bosganingizda, o'zingizni va tengqurlaringizni hayajonlantirgan va tashvishlantirgan bir talay savollarga javob topasiz.

Keling, yaxshisi, sayohatimiz xaritasiga ko'z tashlaylik. Dastavval biz go'yo Konstitutsiya deb atalmish azamat diyor ustida parvoz qilamiz va turfa xalqlar vakillari bu hujjatga nechog'li katta e'tibor berishini bilib olamiz. So'ngra biz tarix qariga sho'ng'iyimiz hamda kishilar nega davlat tashkil etgani va davlat kimlarni muhofaza etishi lozimligini ilg'aymiz. Shundan keyin hozirgi kunga qaytamiz-da, davlat o'zining barcha fuqarolariga kafolatlovchi huquqlar hamda davlatning Asosiy qonuni haqida bilib olamiz. Har birimizning qanday burchlarimiz (majburiyatlarimiz) borligi hamda ularni bajarish qanchalik muhim ekanligi xususida ham o'ylaymiz, fikr yuritamiz.

Hozir atigi 10—11 yoshdasiz. Talay muammolarni o'tanangiz hal qilishadi. Shunday bo'lsa-da, siz allaqachon o'z huquq va burchlaringiz haqida, jamiyatda yurish-turish qoidalari to'g'risida va hamma rioya etishi lozim bo'lgan qonunlar mavjud ekanligi xususida bilasiz.

Yozda bo'yingiz ancha cho'zilib qoldi, o'z harakatlaringiz va ishlaringizda anchayin mustaqil bo'lib qoldingiz. Atrofdagi odamlarning Sizga munosabati ham o'zgardi. Endi: «Kap-katta bo'lib qolding, shunday bo'lgach, mas'uliyatni ko'proq his et-sang-chi!» – degan xitob qulog'ingizga chalinadi. «Mas'uliyatni his etmoq» nima degani, o'zi? Kitob sahifalarida aynan shu haqida hikoya qilib beramiz.

Keling, tanishaylik

Odam yolg'iz sayohat qilganda zerikishi tayin. Istalgan sa-farda hamisha yangi-yangi odamlarga duch kelamiz, ular bi-lan tanishamiz, safardoshlarimizga nafaqat o'z qiziqishlarimiz haqida, qolaversa, oldimizga qaysi maqsadlarni qo'yganimiz, hayotda nimalarga erishishni ko'zlayotganimiz to'g'risida ham gapirib beramiz. Endi ana shu sayohatda o'z safardoshlaringiz bilan yaqindan tanishib olishni tavsiya etmoqchimiz.



1-topshiriq

Yozgi ta'tilda biram o'zgarib ketibsizki! Qarang-a, endi 5-sinfda o'qiysiz-a! Kim bilsin, sinfingizda yangi o'quvchilar paydo bo'lgandir. Keling, ular bilan tanishib olamiz hamda o'zimizni va o'z do'stlarimizni ularga ta-nishtiramiz.

5—6 kishidan bo'lib guruhlariga uyushing. Guruh-dagi har bir o'quvchi navbati bilan o'z ismini aytsin va unga tabiati fazilatlaridan birini aks ettiruvchi sifat ham o'ylab topsin.

O'z guruhingiz ishtirokchilariga yozda qanchalik o'zgarib ketganingiz haqida hikoya qilib bering. Guruhingizni hammasidan ham yaxshiroq tavsiflovchi sifat o'ylab toping. Guruhni sinfga tanishtiring.

Yo'ldagi qoidalarimiz

Keling, sayohatimizda rioya etadigan qoidalar haqida ham kelishib olaylik.



2-topshiriq.

Konstitutsiya diyori bo'ylab sayohatda yangi bilimlar olishda Sizga yordam beruvchi o'z qoidalarinigizni o'ylang va taklif eting. Biz hammamiz uchun eng maqbulini tanlab olamiz va ularga rioya etamiz.



1. Konstitutsiya nega mamlakatning Asosiy qonuni deb yuritiladi?
2. Konstitutsiya yaratilishi uchun nima asos bo'lgan?
3. Sinfdan qanday qoidalarga rioya etilishi o'rganilayotgan materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi?




Uyga vazifa.

Huquq darslaridagi sayohat chog'ida biz ishlatadigan belgilar to'g'risida do'stlaringizga ham hikoya qilib bering. Ana shu belgilarni tag'in qaysi darslarda ishlatish mumkinligi xususida birga o'ylab ko'ring.



KONSTITUTSIYA

Ilk qonunlarning yaratilishi



- 1- rasmda tasvirlangan qadimgi Misr qullari qanday huquqlardan mahrum edilar?
- 2- rasmdagi shaxslarning 1- rasmdagi shaxslarda bo'lmagan qanday huquqlari bor?
3. Konstitutsiyasiz bu huquqlarni ta'minlansa bo'ladimi?
4. Yuqoridagilardan kelib chiqib Konstitutsiyaning jamiyatimiz uchun ahamiyati haqida fikringizni bildiring.

Konstitutsiya olami bo'ylab sayohat qilar ekanmiz, umumiy ishlarni hal etish uchun kishilardan birlashish, davlat tashkil etish va eng umumiy ishlarni hal qilishni saylanuvchi yoki tayinlanuvchi davlat odamlariga ishonib topshirish talab etilganini bilib oldik. Ammo hamma vaqt ham davlat odamlari qolgan aholiga nisbatan odilona ish tutaverishmagan. Ayni mahalda ayrim odamlar davlat odamlari buyruqlariga bo'ysunmagan, jamiyat qoidalarini buzgan, umumiy ishlarni hal qilishga xalal beruvchi qilmishlar sodir etgan hollar ham uchrab turgan. Qonunlarni — kishilarning birgalikda yashashi va ishlashi uchun eng muhim hujjatlarda mustahkamlangan qoidalarni yaratishga ehtiyoj vujudga keldi.



Qonun — davlat umummajburiy huquqiy normalarini mustahkamlab qo'ygan hujjat.

Qadimgi Gretsiya faylasufi Platon kishilarning davlat va qonunlar yaratish sari bosib o'tgan yo'lini shunday tavsiflaydi: «Deydilarki, adolatsizlikka yo'l qo'yish odatda soz, unga sabr qilish esa og'ir kechadi. Ammo, ma'lum bo'ldiki, birinchisida yaxshisiga qaraganda ikkinchisida yomoni ko'proq ekan. Kishilar har ikkalasini ham tatib ko'rishganidan so'ng bir-birlari bilan ahdlashib olish zarurligini anglab yetishdi. Adolatli sanalgan narsa qonunga aylandi. Qonuniylik tamoyiliga rioya etmaslik jazolanar edi. Qonuniylik va adolat shu tariqa vujudga kelgan».

Shunday qilib, jamiyat rivojlanib borgani sayin qonunlar hamma uchun majburiy tus oladi. Qonunlar ijro etilishi ustidan nazorat qilish uchun davlat maxsus organlarni — sudlar, soliq xizmati, huquqni himoya qilish organlarini tashkil eta boshlaydi. Binobarin, bu davlat organlari turfa xalqlarda turlicha atalishi ham mumkin edi, albatta.

Dalvatning har bir fuqarosiga hamma rioya etadigan qonunlar va qoidalar mavjud bo'lishi nega kerak?



1-topshiriq.

Har bir o'quvchi ana shu savolga kamida uchta javob yozsin. O'z javobingizni yoningizdagi partadoshingizga ko'rsating va u bilan birga uchta umumiy javob tayyorlang. Shundan so'ng to'rt kishidan iborat guruhlariga uyushing, javoblarni muhokama qiling va ularning mushtarak jihatlarini toping. Xuddi shu ishni sakkiz kishidan iborat guruhda ham takrorlang. Guruh ishi yakunlarini butun sinfga tanishtiring.

Dastlabki konstitutsiyalarning paydo bo'lishi

«Konstitutsiya davlatning Asosiy qonunidir» degan ibora tez-tez qulog'imizga chalinadi.

«**Konstitutsiya**» so'zi tarixda ilk marta Qadimgi Rimda uchraydi.

Rim imperatorlarining ayrim farmonlari yoki dekretlari «konstitutsiya» deb atalgan. Bu so'z lotin tilidan tarjima qilinganda «qoidalar, nizom» degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlaridan ayrimlari qonunchiligida yangi tushun-

cha — «**asosiy qonun**» tushunchasi paydo bo'ldi. Davlat va jamiyat, hokimiyat va xalqning o'zaro munosabatlariga asosiy e'tibor qaratilgan hujjatlar shunday atalgan.

XIII asrda Angliya qiroli Yersiz Ioann «Erkinliklar buyuk xartiyasi»ga imzo chekdi, unda hokimiyat faqat qonunga tayanihi, fuqarolar va hukmdor hamkorlik va rozilik asosida o'zaro hamkorlik qilishi, shuningdek, kishilarda davlat bekor qila olmaydigan huquqlar mavjudligi ta'kidlangan edi. Ko'pgina o'rta asr shaharlarida ustavlar qabul qilingan, shaharliklar va shahar hokimlari huquq va majburiyatlari belgilangan edi. Mazkur jarayon nafaqat Yevropada kechgan edi.

O'rta Osiyoda buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur XIV asrda o'zining mashhur «Tuzuklar»ini tatbiq qilgan. Unda Amir Temur hukmdor va ra'iyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi qoidalarni sanab o'tadi, davlatni boshqarish yuzasidan maslahatlar beradi. Biroq aytib o'tilganlar hammasi qonunlar va qoidalar to'plami edi, xolos. Har bir davlat tarixida rang-barang qonunlar va qoidalardan eng asosiysini tanlash zarurati tug'ilgan palla bo'lgan.

Yagona, asosiy qonun ko'rinishida yozilgan birinchi Konstitutsiya XVIII asr oxiridagi mustaqillik uchun kurash jarayonida Amerika Qo'shma Shtatlarida vujudga keldi. Aytish mumkinki, aynan konstitutsiya qabul qilinganidan keyin bir qancha tarqoq shtatlar amalda yangi davlatga — AQSHga aylandi. AQSH Konstitutsiyasida atigi 7 modda bo'lishiga qaramasdan, arzi mas miqdorda tuzatishlar kiritilgan bu hujjat hozir ham amal qilmoqda.

Hozirgi kunda jahondagi deyarli barcha davlatlar amalda o'z konstitutsiyasiga egadir.



2-topshiriq.

Sizningcha, jahondagi barcha mamlakatlar uchun yagona Konstitutsiya yaratish mumkinmi?




Kim har bir davlatning o'z Konstitutsiyasi bo'lishi shart deb hisoblaydi?

O'z nuqtayi nazarinigizni ifodalang.

Konstitutsiyaning boshqa qonunlardan farqi



Konstitutsiya jamiyat hayoti va davlat tuzilishi tizimi asosiy qoidalarini mustahkamlab qo'yuvchi asosiy qonun tariqasida tushuniladi.



1. Suratlardagi odamlar jamiyatning qanday tabaqalariga mansub deb o'ylaysiz?
2. Ularning hayotlari va faoliyatlari qanday qonun va qoidalarga binoan tartibga solib turilishi haqida o'zingizning fikringizni bildiring?

Konstitutsiya butun xalq tomonidan davlatning yalpi hokimligini cheklash va mamlakat fuqarolari huquqlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida qabul qilinadi va tasdiqlanadi.

Konstitutsiya boshqa qonunlardan qanday farq qiladi? Konstitutsiya, **oliy yuridik kuchga egaligi**, ya'ni qolgan barcha qonunlar Konstitutsiyaga zid bo'lmashligi, balki uning mazmunini ochib berishi tufayli davlatning asosiy qonuni sanaladi.

Boshqa qonunlardan farqli o'laroq, inson huquq va burchlari, ana shu huquqlarga rioya etilishini ta'minlovchi davlat tuzilishi Konstitutsiyaning mazmunidir.

Konstitutsiya davlatning har bir fuqarosi uchun zarur, negaki u podshoh yoki prezident emas, balki Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq oliy hukmdorga aylanadi, deb ta'kidlagan. Bu narsa yuridik tilda **huquq ustunligi prinsipi** deb yuritiladi.

Konstitutsiya jamiyat va davlat faoliyatining uzoq muddatiga qabul qilinadi. Konstitutsiyani o'zgartirish juda qiyin, negaki Asosiy qonunning arziyasi darajada o'zgartirilishi mamlakat hayoti asoslarini o'zgartirishni anglatadi. Davlat zaruratga ko'ra u yoki bu qonunlarni almashtirishi mumkin, ammo Konstitutsiya hamisha **barqaror**, ya'ni doimiy bo'lib qolishi zarur. Aynan shu narsada Konstitutsiyaning boshqa qonunlar va qarorlardan yana bir farqi namoyon bo'ladi.

Asosiy qonunimiz

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Ana shu hujjat muqaddimasida (ya'ni kirish qismida) O'zbekiston xalqining inson huquqlariga va davlat suvereniteti prinsiplariga, demokratiya va ijtimoiy adolat idealiga, respublika fuqarolari munosib turmushini ta'minlashga intilishga sodiqligi e'lon qilingan. Shunday qilib, davlat inson huquqlariga rioya etish jamiyatimizda majburiy ekanligini, biz barcha odamlar baxtli bo'lishi va qonun bilan muhofazalanishini xohlashimizni tasdiqladi.

Aynan shu narsa jamiyatimiz hayotining poydevoridir. O'zbekiston Asosiy qonunining oliy yuridik kuchi va huquqiy ustunligi Konstitutsiya moddalarida mustahkamlab qo'yilgan, jumladan:



O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

15- modda



Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

16- modda

Mamlakatimiz Asosiy qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat a'zolarining jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi yoki referendum (O'zbekiston Respublikasi aholisining umum-xalq muhokamasi) tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi (127- modda).



1. Yurish-turish (muomala) me'yorlari nega kerak?
2. Jamiyatda yurish-turish (muomala) me'yorlari qay tariqa vujudga keladi? Ulardan qaysilari an'anaga aylanadi?
3. Qonun nima?
4. Dastlabki konstitutsiyalar qachon va qaysi maqsadda yaratilgan?
5. Qonunlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati qanday?
6. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar qay tarzda kiritiladi?



Uyga vazifa.

Topshiriqni o'qing va bajarung.

Mening shaxsiy konstitutsiyam

AQSH Konstitutsiyasi yaratuvchilaridan biri amerikalik davlat arbobi va alloma Benjamin Franklin (1706 — 1790) edi. Benjamin bolaligidanoq insonga omad keltiruvchi va uni ulug' insonga aylantiruvchi narsalar haqida ko'p bosh qotirgan. Maktabda ikki marotaba arifmetikadan muammo chiqqanidan keyin darslikni qo'lga oldi va uni mustaqil o'qib o'zlashtirdi. Ana shu harakatni u o'zining ilk mustaqil qadami deb bilgan. Keyin u o'zi uchun turmush tarzini belgilab bergan va uning shaxsiy konstitutsiyasiga aylangan qoidalar ro'yxatini tuzib olgan edi, jumladan:



1. Mo'tadillik. Har ishda.
2. Jimlik. Behuda suhbatlardan nariroq yuringin.
3. Batartiblik. Har bir narsang o'z o'rnida bo'lsin; har ishni o'z vaqtida qilgin.
4. Qat'iylik. Bajarishing shart bo'lgan ishlarni qat'iyat bilan ado etgin.
5. Tejamkorlik. Isrofgar bo'lmagin.
6. Tirishqoqlik. Vaqtni behudaga o'tkazmagin, hami-sha qandaydir foydali ish bilan mashg'ul bo'lgin.
7. Samimiylik. Aldamagin, fikrlaring toza va odil bo'lsin.
8. Odillik. Nohalol harakatlar bilan birovga zarar yetkazmagin.
9. Bosiqlik. Zo'ravonlikdan tiyilgin: alamzadalik va adolatsizlikdan qanchalik zarur deb bilsang, shunchalik tiyilgin.
10. Ozodalik. Tanangni ozoda tutgin, kiyim-kechak va turar joyda orastalikka rioya etgin.
11. Osoyishtalik. Behuda narsalar va odatiy yoki muqarrar vajlardan bekorga tashvishlanmagin.

Benjamin Franklin «shaxsiy konstitutsiyasi» prinsiplaridan qaysilariga rioya etasiz, qaysilarini e'tiborga olmaysiz?



DAVLAT NIMA?

Davlat vujudga kelish sabablari



1. Rasmlarga qarang. Ularda nimalar tasvirlangan?
2. 1-rasmdagi ibtidoiy odamlar o'zaro munosabatlarini qay tariqa tartibga solib turganlar?
3. 2-rasmda Amir Temur bobomizning davlat boshqaruvi bilan shug'illanayotgan payti tasvirlangan. Agar davlatchilik munosabatlari yo'lga qo'yilmaganda, sohibqiron bobomiz o'zining tarixiy yutuqlariga erishishiga imkon bo'larmidi?
4. Hozirgi davrdagi jamiyatimizni davlat boshqaruvisiz tasavvur qilsa bo'ladimi? Fikringizni asoslang.

Sayohat aslida yangi-yangi odamlar, yangi-yangi yerlar, yangidan yangi davlatlar bilan tanishish deganidir.

Xo'sh, «davlat» so'zi nimani anglatadi?

Ibtidoiy odamlar kam sonli qabila tarzida kun kechirishgan, o'rtadagi umumiy muammolarni hal etish maqsadida eng kuchli va donishmand kishini o'zlariga qabila boshlig'i (dohiy) etib saylash kifoya qilgan. Dohiy ham sudya, ham himoyachi bo'lib, urush e'lon qilarg va sulh tuzar edi.

Insoniyat rivojlangani sayin hayot ham rang-barang va murakkab bo'lib boraverdi. Mushtarak vazifalar ham tobora murakkablashdi: o'z yerini boshqa qabilalar hamlalaridan himoya qilish, qal'alar va ariqlar bunyod etish, yo'llar yotqizish zarur edi... Bu kabi murakkab umumiy ishlarni qabila dohiysi oqsoqollarni madadga chorlagan taqdirda ham hal qila olmas, bu ham yetmaganidek, endilikda turli qabilalarga mansub kishilar bir makonda hayot kechirishardi. Turli ishlarni bajarishni uyushtirish uchun maxsus odamlar tayinlanadigan bo'ldi. Hukmdori, amaldorlari, armiyasi bo'lgan davlat aynan shu tariqa vujudga keladi.



Davlat — umumiy ishlarni hal etish uchun butun jamiyatni uyushtirishdir.

Jamiyat esa bizlarmiz, ya'ni mushtarak tarix, madaniyat, taqdir bilan o'zaro bog'langan bir mamlakatda yashovchi odamlar.

Hammamizda bir o'zimiz hal qilishimiz iloji bo'lmagan ishlar va muammolar mavjud. Bu esa jinoyatchilar bilan kurashish, chegaralarni qo'riqlash, inson huquqlarini himoya qilish, qariyalar va bolalar xususida g'amxo'rlik qilish va boshqa bir talay vazifalardir.

Ammo boshqarish uchun umumiy ishlar bilan muntazam shug'ullanuvchi: qonunlar tayyorlovchi, ular ijro etilishi ustidan nazorat qilib turuvchi, odil sudlovni amalga oshiruvchi maxsus organlar va odamlar zarur.



1- topshiriq.

O'zbekiston Respublikasining qaysi davlat organlarini bilasiz?

Davlat organlarining vazifalari



1. Rasmlarga qarang. Bu binolar haqida nimalarni bilasiz? Ular qayerda joylashgan?
2. Bu binolarda kimlar ishlaydi? Ular qanday faoliyat bilan shug'ullanadilar?

Keling, davlat organlari: Oliy Majlis, hukumat, militsiya, hokimiyat, sud kimning manfaatlarini himoya qilishi haqida o'ylab ko'raylik-chi.

Albatta, bizning, ya'ni har birimizning. Negaki aynan biz, hammamiz birgalikda davlatdirmiz. Mabodo birdaniga hammamiz yo'q bo'lib qolsak, unda davlat organlarining nima ham keragi bor? Ular jamiyat, ya'ni biz mavjud ekanligimiz tufayligina mavjuddirlar.

Boshqacha aytganda, davlat va davlat organlari xalq uchun, mamlakat aholisi umumiy ishlarini hal qilish uchun mavjud bo'ladi. Ammo faqat demokratik davlatdagina buning iloji bor.



«Demokratiya», grek tilidan tarjima qilinganda, «xalq hokimiyati» degan ma’noni anglatadi.



Dalvat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

2- modda

Davlatni boshqarish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 7-moddasiga muvofiq, mamlakatimizda hokimiyatning birdan bir manbai xalqdir, ya’ni kishilar o‘z vakillarini — **deputatlarni** saylaydilar. Deputatlar esa xalq nomidan jamiyat rioya etib yashaydigan qonunlarni ishlab chiqadilar va qabul qiladilar.



O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin...

10-modda

Davlat hayotining eng muhim masalalari yalpi ovoz berish — **referendum** yo‘li bilan hal etiladi, bunda har bir fuqaro hukumat qarorini ma’qullashini yoki ma’qullamasligini izhor etadi. Shundan keyin «ma’qullayman» va «qarshiman» degan barcha ovozlar sanab chiqiladi va uzil-kesil qaror qabul qilinadi. Bunday yalpi ovoz berish referendum deb ataladi.

18 yoshga to‘lganingizdan keyin siz ham davlatni boshqarishda ishtirok eta olasiz. Siz davlat organlariga saylanish, davlat arbobi bo‘lish huquqiga ega bo‘lasiz. Biroq jamiyat hayotida ishtirok etish, umumiy ishlarni hal qilishda qatnashish uchun 18 yoshga to‘lishni kutib o‘tirish kerak emas.



2-topshiriq.

Guruhlarga bo'ling. Har bir guruhdan maktab Kengashida yoki maktab ma'muriyatida sinfingiz manfaatlarini ifoda etuvchi «deputat»ni saylang. Sizingcha, hal etilishi maktab ma'muriyatiga bog'liq bo'lgan sinfingiz muammolari ro'yxatini tuzing.



1. Nega kishilarga davlat tuzish zarur bo'lib qoldi?
2. Davlat va jamiyat nima?
3. O'zbekiston Respublikasining qaysi davlat organlarini bilasiz?
4. Demokratiya nima?
5. Mamlakatimizda hokimiyatning birdan bir manbayi kim?
6. Aholi qay yo'sinda davlat boshqaruvida ishtirok etadi?



Uyga vazifa:

1. O'ylab ko'ring-chi, darsda guruhingiz gapirgan nizoni hal qilishga maktab ma'muriyatini ishontirish uchun sinfdoshlaringizga qanday shaxsiy fazilatlar yordam, qaysilari esa xalaqit beradi.
2. Odamning muammoni hal qilishga yordam beruvchi fazilatini «+» bilan, ma'muriyat bilan munosabatni chigallashtiradiganlarini esa «—» bilan belgilang, shu jumladan: quvnoqlik, ayyorlik, xushmuomalalik, mahmadonalik, bosiqlik, isrofgarlik, kattalarga hurmat-izzat, kuchli iroda, hasadgo'ylik, ochko'zlik, yoqimtoylik, saxiylik, maqtanchoqlik, epchillik, sportga qiziqish, yalqovlik, kichkintoylarga g'amxo'rlik.
3. Ushbu ro'yxatni davom ettirishingiz mumkin. Nega insonning aynan shu fazilatlarini tanlab olganingizni tushuntirib bering.



DAVLAT QAY TARIQA BOSHQARILADI?

Davlatni odamlar — siz-u biz saylagan kishilar boshqaradilar. Barcha umumiy ishlarni hal qilishni biz ularga ishonib topshiramiz. Boshqalar uchun qaror qabul qilish esa o'ta murakkab va mas'uliyatli ishdir.



Eski tuzumlardan bizga nura b, vayron bo'lgan boshqaruv tizimi meros qoldi. Ana shu vayrona o'rnida o'zimizning binoni tezroq tiklashimiz zarur.

Demokratik davlatda hokimiyatning bo'linishi prinsipi amal qiladi: parlament deputatlari qonunlarni qabul qiladi, ularni hukumat ijro etadi, sudlar esa qonunlarni tatbiq etish borasidagi ziddiyatlarni hal qiladi. Ularning har biri, boshqasining ishiga aralashmasdan, o'z ishini bajaradi.



O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

11- modda

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi. Sud hokimiyati inson huquqlarini himoya qiladi, fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal qiladi. Qonunda sudyalardan tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir o'tkazishga hech kim haqli emasligi belgilangan.



Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlarda xalq deputatlari Kengashlari qonun chiqaruvchi hokimiyatni ifoda etadi. Ijro etuvchi hokimiyat hokimga taalluqlidir. Mahallalarda o'zini o'zi boshqarish organlari — mahalla qo'mitalari raislari (oqsoqollar) yetakchilik qiluvchi fuqarolar yig'ini ish ko'radi. Ular joylarda qonunlarni ijro etishda va har bir tuman, har bir ko'cha, har bir xonadon, har bir oila muammolarini hal qilishda hokimga yordam beradi.



Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. Mahalla boshqaruviga bunday katta e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchiligidan dalolat beradi.



1. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi qaysi prinsipga asoslangan?
2. Davlatimizda qonunlar qay tariqa ishlab chiqiladi va qabul qilinadi?
3. O'zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi qanday ataladi?
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kim rahbarlik qiladi?
5. Sud hokimiyati jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
6. Mahalla qo'mitalari fuqarolarning qaysi muammolarini hal qiladi?



Beshinchi sayohat

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING TAKOMILLASHTIRISHI

Davlat boshqaruvini demokratlashtirishda davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi organi — Oliy Majlisning vakolatlarini kuchaytirishning ahamiyati kattadir. Chunki aynan Oliy Majlis O‘zbekiston xalqi tomonidan saylangan vakillar xalq manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatadigan organdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis palatalarining 2010-yil 12-noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» ma‘ruzasida bir qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surdi. Ularga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Ushbu o‘zgartish va qo‘shimchalar davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirishga, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta‘sirini kuchaytirishga qaratilgan.



Biz hammamiz shuni aniq anglab olishimiz zarurki, saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o‘z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilgan qo‘shimchalarga binoan O‘zbekiston Respub-

likasi Bosh vaziri nomzodi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu qonunchilik tashabbusi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, mustaqil davlatimizni demokratik rivojlantirishdagi, yangi bosqichning boshlanishi bo'lib, mamlakatimiz uchun tarixiy ahamiyatga molikdir.

Konstitutsiyaning 78-moddasi birinchi qismi 15-bandiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga muvofiq Oliy Majlis palatalariga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitysh huquqi beriladi. Bu ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan parlament nazorati imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, deputatlarning, fraksiyalarning dolzarb sotsial-iqtisodiy masalalar hal etilishida o'z saylovchilarining manfaatlarini himoya qilish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ladi.



Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.



Deputatlar guruhlarini qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari, demokratik islohotlar aniq maqsadga qaratilgan holda va bosqichma-bosqich o'tkazilayotganligi, jamiyat hayotining barcha sohalari erkinlashtirilayotganligi bunday o'zgartish va qo'shimchalar kiritish imkonini berdi.

Prezidentimiz taklifi bilan Konstitutsiyamizning yana 80, 93, 96-moddalariga ham o'zgartishlar kiritildi. Bu o'zgartishlar ham asosan davlatimiz boshqarish tizimidagi islohotlarga taalluqlidir.

Konstitutsiyamizning 90-moddasiga Prezidentimizning alohida taklifi bilan kiritilgan o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari muddatini yetti yildan besh yilgacha qisqartirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida quyidagi fraksiyalar faoliyat ko'rsatmoqda:

 <p style="text-align: center;">O'ZBEKISTON ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI</p>	<p>O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining fraksiyasi</p>
	<p>Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasining fraksiyasi</p>
	<p>O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining fraksiyasi</p>
	<p>O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining fraksiyasi</p>
	<p>O'zbekiston ekologik harakati deputatlari guruhi</p>



1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalariga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritishni kim va qachon taklif etdi?
2. Bu o'zgartish va qo'shimchalar nima maqsadda amalga oshirildi?
3. 98-moddaga kiritilgan qo'shimchalarga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi kim tomonidan taklif etiladi?
4. Ushbu qo'shimchalarning mamlakatimiz parlamenti faoliyati uchun qanday ahamiyati bor?
5. Konstitutsiyamizning 78-modda birinchi qismi 15-bandiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning asosiy mazmunini aytib bering.
6. Prezidentimiz taklifi bilan Konstitutsiyaning yana qaysi moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi?
7. Prezidentimizning alohida taklifiga binoan Konstitutsiyamizning 90-moddasiga kiritilgan tuzatish nimaga taalluqli?




Uyga vazifa.

1. Shahringiz, tumaningiz hokimi familiyasi, ismi va otasining ismini bilib oling va ish daftarga yozib qo'ying.
2. Siz yashab turgan mahalla qo'mitasi raisining ismi-sharifi nima?
3. Mahallangiz nomi nima? Mahallangiz manzili va telefonini yozib oling.
4. Mahalla qo'mitasi ota-onangizga qaysi muammo-ni hal qilishda yordam berganini ota-onangizdan so'rab bilib oling.



HAYOTIMIZDA RAMZLAR



1. Rasmlarga qarang. Atirgullar insonlar o‘rtasidagi qanday munosabatlarning timsoli bo‘lishi mumkin?
2. Kitoblar nimaning timsoli bo‘lishi mumkin? Parvoz qilayotgan turnalar-chi?

Bilasiz, har qaysimizning o‘z ismimiz bor, u bizni boshqalardan farqlab turadi. O‘z ismingiz, familiyangiz va otangiz ismini talaffuz eting-chi, bu birikma faqat sizgagina oid ekanligidan voqif bo‘lasiz.

Xuddi shunday familiyaga oilangizning boshqa a‘zolari ham egadirlar, o‘z navbatida, bu narsa sizning aynan shu oilaga mansub ekanligingizni bildiradi. Otangiz ismi esa, tabiiyki, padaringizga ishora etadi. Ismingiz faqat sizga tegishlidir.

Ko‘pgina xalqlarda ismlar hamisha alohida mazmunga ega bo‘lgan. Ism inson taqdirini belgilaydi deb hisoblangan. Shuning uchun ham o‘zlarining bo‘lg‘usi farzandiga ism tanlar ekan, ota-onalar uning butun hayoti shoriga, ramziga aylangulik ismni topishga intilishgan.

Ramz nimani anglatadi?



«**Ramz**» so‘zi tanishtiruvchi belgi degan ma‘noni ifodalaydi.

Demak, sizning ismingiz — sizning tanishtiruvchi belgingiz. Ismdan tashqari bizda yana ko'plab ramzlar ham mavjud. Biz ko'pincha o'zimizga ahamiyatli bo'lgan voqealar va kishilarni eslatib turguvchi ramzlarni uyda asraymiz. Masalan, fotosuratlar, suvenirlar, sovg'alar.



1- topshiriq.

Uyingizda yana qanday ramzlar saqlanishini sanang. Nega odamlar ularni shunchalik e'zozlaydilar?

Ramz va uning ta'rifini to'g'ri joylashtiring.

kitob	muhabbat ramzi
atirgul	kuch-qudrat va uzun umr ramzi
eman	bilim ramzi
yashil novda	yuksalish ramzi

O'zingiz ham misollar keltiring.



2-topshiriq.

5 kishidan guruhlarga bo'lining. Har bir guruh quyida keltirilgan topshiriqlardan bittasini tanlasin.

1. Siz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ramzlarni eslang. Nega ular sizga qadri va aziz?
2. Hayotingizda muhim rol o'ynagan katta yoshdagi kishini eslang. U sizga qay tarzda yordam bergan? U qanday fazilatlarga ega edi? Uning asosiy fazilatini qandaydir ramz bilan ifodalay olasizmi?
3. Siz uchun ibrat namunasi bo'lgan tanishingiz, do'stingiz, qisqasi, tengdoshingizni eslang. Nega unga o'xshagingiz keladi?
4. Sizning fe'l-atvoringizga yoki o'qishga va atrofdegilarga munosabatingizga ta'sir o'tkazgan voqeani eslang.
5. Fikringizcha, inson qaysi muhim fazilatlarga ega bo'lishi kerak? Bu fazilatlar kishilarga qay tariqa madadkor bo'ladi?

Galma-galdan guruhga olingan topshiriq haqida soʻzlab bering va ularni muhokama qiling. Muhokamalaringiz asosida sizning umumiy qarashlaringizni ifodalovchi guruhingiz shiorini ishlab chiqing. Shioringizni «Ishonamizki...» gerbiga yozib qoʻying. Shioringizni yaqqol ifodalovchi ramzni oʻylab toping va gerbga chizing. Gerbni sinf guruhingizga tanishtiring va gerbdagi ramz maʼnosini tushuntiring.

Sinfingiz gerbini unga har bir guruh ramzini joylashtirib ishlab chiqing.



3-topshiriq.

Guruhda ishlashni davom ettiring. Quyidagi usuldan foydalangan holda sinfingiz madhiyasini yozishga harakat qilib koʻring:

Birinchi satrga guruhingiz shiorini aks ettiruvchi bita soʻz-mavzu (ot) yozasiz.

Ikkinchi satrda — ikkita soʻz bilan mavzu tavsifini (ikkita sifat).

Uchinchi satrda — ushbu mavzu voqealari tasviri uchta soʻz bilan (uchta kesim).

Toʻrtinchisida — toʻrt soʻzdan iborat his-jumla mavzuga munosabatni namoyon etadi.

Beshinchisida — mavzu mohiyatini takrorlovchi sinonim.

Masalan:

1.

Oʻzbekiston
Soʻlim, saxiydir.
Yuksalib gullaydi koʻrklanib,
Yildan yilga chiroyi ortar.
Ona Vatanim manim!

2.

Maktabjonim
Keng, sershovqin.
Qarshilar, oʻqitar, kuzatar,
Ochib berar hayotga yoʻlni.
Ikkinchi uyimizdir u!

Guruhingiz madhiyasini butun sinfga tanishtiring. Eng yaxshisini tanlang. U sinfingiz madhiyasi boʻla oladimi?

Ushbu topshiriqlar ustida ishlar ekansiz, o'zingizga nihoyatda ahamiyatli va aziz so'zlarni tanladingiz, ulardan o'z gerbingiz va madhiyangizni yaratdingiz. Boshqa kishilar ulardan siz uchun hayotda eng muhimini bilib olishadi.



1. Sizga qadrli bo'lgan narsaga kimdir hurmatsizlar-cha munosabatda bo'lsa, nimalarni his etasiz?
2. Ismingiz ma'nosini bilasizmi?
3. Quyida keltirilgan ismlar nimani anglatishini bilishga harakat qiling.
4. Ismni ma'nosi bilan muvofiqlashtiring.

Ism	Ism ma'nosi
Anvar	tosh, toshli
Shahlo	yoqimli, go'zal, suyukli
Hamida	katta qora ko'zli qiz
Akbar	orzu, umid qilingan, kutilgan bola
Umid	yorug', nurli, toleyi porloq
Dilbar	maqtovga loyiq, yaxshi, a'lo qiz

1. Ramz so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Qaysi narsalar oilangizda ramz hisoblanadi?



Uyga vazifa.

1. Darsda o'z sinfingiz haqida nima yangilikni bilib olganingizni, sinfdoshlaringiz nimani qadrlashini ota-onangizga hikoya qilib bering.
2. Oilangiz gerbi va madhiyasini yaratishga urinib ko'ring.
3. Ota-onangizdan «tumor» so'zining ma'nosini so'rang. Juda ko'p o'zbek oilalarida ushbu ramz saqlanadi. Bir necha kishidan ular nega bu ramz kuchiga ishonishini so'rab ko'ring.



DAVLAT RAMZLARI

Madhiya, gerb, bayroq — davlat ramzlaridir.

Har bir davlatning ham o'z nomi bor. U, xuddi inson ismi singari, uni boshqa davlatlardan farqlab turadi. Bunday nom butun jamiyat tomonidan tanlab olinadi.

O'zbekiston Respublikasi — bu ikki so'z katta mazmunni bag'riga jo etgan: unda faxr-iftixor ham, mamlakatimiz nomi tarixiy ildizi ham, davlatimizda eng asosiysi xalqdir va aynan u davlatni boshqaradi degan ta'kid ham o'z mujassamini topgan.



1- topshiriq.

Matnni o'qing. Matn ustida ishlash paytida quyidagi belgilardan foydalaning: «V» — ilgari bilganlaringiz tasdig'i; «+» — yangi axborot;

«-» — ilgari bilganlaringizni rad etadi; «?» — tushunarli emas, qo'shimcha axborot talab etiladi.

An'analarga muvofiq, davlat nafaqat nomga, boshqa farqlovchi belgilarga — ramzlarga ham egadir. Har bir davlatning uchta asosiy ramzi bo'lib, bular: gerb, bayroq va madhiya. Davlat ramzlari qonun bilan mustahkamlab qo'yiladi.

Har bir davlatda ming-minglab emblemalardan muayyan tasvirlarni tanlab olish tasodifiy bo'lmagan. O'z ramzlariga sadoqat va ularni asrlar bo'yi asrab-avaylash alohida faxr-iftixor manbayidir. Ramzlar xalqni millatga birlashtiradi, unga davlatchilik baxsh etadi. Davlat ramzlarini e'zozlash Vatanga hurmat va muhabbat nishonasidir.



Bayroq — davlatning rasmiy farqlovchi belgisi.



Bayroq butun mamlakatga, davlatning barcha fuqarolariga birdek tegishlidir. U davlat uchun mustaqillikning bosh ramzi hisoblanadi. Davlat bayrog'iga yuksak hurmat-ehтиrom

ko'rsatiladi, uning tahqirlanishi — millat va davlatning tahqirlanishidir.

Milliy davlat bayrog'idagi asosiy narsa — rang yoki ranglaridir. Bayroqqa ushbu davlatni qo'shimcha tarzda tanishtiruvchi turli tasvirlar chizilishi mumkin.

Bayroqning barcha unsurlaridan eng o'zgaruvchani tasvirlar, eng muntazami esa rangdir. Bayroqdagi rang va tasvirlar tasodifiy emas, ular ma'lum ramziy ahamiyatga egadir. Rangni o'zgartirish, qoida tariqasida, davlat boshqaruvidagi yirik o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i



1. Rasmlarga qarang. Nima sababdan qasamyod qabul qilinayotganda davlatimiz bayrog'ini o'pish rasm bo'lgan? Sizningcha, bu nimani anglatadi?
2. Sport musobaqalari g'oliblari taqdirlanayotgan chog'larida davlatimiz bayrog'ini boshlari uzra faxrlanib ko'tarishlarining sababi nimada deb o'ylaysiz?

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ramzlari mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan qudratli davlatlar bayroqlariga xos eng yaxshi an'analarni davom ettiradi. Ayni mahalda bayrog'imiz mamlakatimizning o'ziga xos

tabiatini, xalqning milliy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bayroqdagi moviy rang — niliy osmon, zilol suv ramzi. Sharqda e'zozlangan firuza rangni qachonlardir Sohibqiron Amir Temur ham o'z bayrog'i uchun tanlagan edi. Oq rang — tinchlik va pokizalik ramzidir. Navqiron mustaqil davlat o'z yo'lida yuksak dovonlardan o'tishi lozim. Bayroqdagi oq rang esa yo'l oydin va charog'on bo'lsin degan yaxshi tilakni bildiradi. Qizil chiziqchalar — har bir tirik jonga hayot bag'ishlovchi kuch-qudratdir. Yashil rang — go'zal tabiat timsoli. Hilol O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analariga mosdir. Bayroqda komillik belgisi hisoblanuvchi son — 12 ta yulduz ham bor.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi



«**Gerb**» so'zi nemischa «erbe» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «meros» sifatida tarjima qilinadi. Gerb egasining tarixiy an'analarini ifodalovchi ramziy ahamiyat berilgan tasvirdir.

Ibtidoiy odamlarda qabila yoki urug'ning muqaddas hayvonlari, homiylari tasvirlari gerbning eng qadimgi birlamchi timsollari bo'lgan. Qadimgi davlatlardagi tangalar va muhlarda doimiy takrorlanuvchi emblemalar ham gerb edi. Miloddan avvalgi III ming yillikdayoq Shumer davlati gerbi — arslon boshli burgut mavjud bo'lgan.

O'rta asrlarda shaharlarning hozir ham saqlanib qolgan gerblari paydo bo'lgan. Sharq mamlakatlarida gerb uchun



1. O'zbekiston gerbi haqida nimalarni bilasiz?
2. Pullarni ham davlat ramzi desa bo'ladimi?

naqsh ishlatilgan. Masalan, Samarqand shahri gerbi. Buxoro shahri gerbida esa yoy va uning ustida gulchechak tasvirlangan. Amir Temur gerbini — uch halqa birlashmasini ko'pgina mamlakatlarda bilishgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi mamlakatimizning qo'li gul rassomlari tomonidan yaratilgan va 1992-yil 2-iyulda tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi o'ngdan bug'doy boshloqlari va chap tarafdin chanog'i ochilgan g'o'za novdasi bilan hoshiyalangan chambar bilan o'ralgan tog'lar, daryolar va gullagan vodiylar ustida charaqlayotgan quyosh tasvirini o'zida mujassamlashtirgan. Gerbning yuqorisida respublika birligi ramzi bo'lmish sakkizqirra joylashgan. Sakkizqirra ichida hilol va yulduzlar o'z aksini topgan. Gerb markazida bag'rikenglik, poklik va fidoyilik ramzi bo'lmish afsonaviy Humo qushi tasvirlangan. Bu ramzlar tinchlik, ezgulik, baxt-saodat va farovonlikka intilish orzu-umidlarini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi

Madhiya (gimn) — millatni birlashishga da'vat etuvchi tantavor qo'shiqdir.

«Gimn» so'zining o'zi esa grekchadir. Qadim-qadim zamonlardayoq ilohlar va qahramonlarni madh etuvchi qo'shiqlar shunday atalgan. Asrlar o'tgani sayin matnlar ham o'zgarib bordi. Ularning mazmunini ezgu va yuksak g'oyalarni madh etish, abadiylashtirish ko'proq tashkil eta boshladi.



Mustaqil va ozod O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda tasdiqlangan.

di. Ularning mazmunini ezgu va yuksak g'oyalarni madh etish, abadiylashtirish ko'proq tashkil eta boshladi.



Mustaqil va ozod O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda tasdiqlangan.

Shoir Abdulla Oripov O'zbekiston tabiati va ana shu zamin-da yashovchi odamlar naqadar ajoyibligi va go'zalligi haqida tarovatli satrlar bitdi. Bastakor Mutavakkil Burhonov esa madhiyaning yorug' istiqbolga ishonchni mustahkamlovchi tantanavor musiqasini bastaladi.

Madhiya orkestr yoki xor ijrosida tantanali vaziyatlarda: alohida xizmatlar ko'rsatgan fuqarolarni taqdirlash marosimlarida, yosh askarlar va ofitserlar harbiy qasamyod qabul qilayotganida, rasmiy delegatsiyalarni qarshilash paytida, sport musobaqalarida sovrindorlarni taqdirlash chog'ida, turli anjumanlar ochilishida ijro etiladi. Madhiya rasman ijro etilganda fuqarolar o'rinlaridan turadilar.

Turli mamlakatlarda yashovchi odamlar davlat ramzlariga katta hurmat bilan munosabatda bo'lishadi. Ana shu talab qonun bilan mustahkamlab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari davlatimiz ramzlariga hurmatsizlarcha munosabat uchun jinoiy jazoni nazarda tutadi.



1. Ramzlar davlatga nega kerak?
2. Tarkibiga O'zbekiston ham kirgan xalqaro tashkilotlar ramzlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Davlat bayrog'idagi tasvirda asosiysi nima?
4. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari haqida nimalarni bilasiz?



Uyga vazifa.

Shahringiz yoki qishlog'ingiz gerbi bormi?

Unda tasvirlangan ramzlar nimalarni anglatadi?



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI

Kim mamlakat fuqarosi sanaladi?

Chet elga borganimizda biz o'zimizni o'zbekistonlikmiz deb tanishtiramiz. Bizning o'zbekistonlik ekanligimiz bizga anchagina huquqlar beradi va bizga anchagina burchlar yuklaydi. Rasmiy ravishda esa odamning qanday mamlakatga taalluqliligiga qarab shu mamlakat fuqarosi deb atashadi.



1. Rasmlardagi qizlar va otaxonlarni rasmiy ravishda qanday atasak bo'ladi?
2. Ularning bunday atalishi ularga nimalar beradi va ular zimmasiga nimalarni yuklaydi?

Jamiyat hayotining o'ta muhim qoidalari Konstitutsiyaga kiritilgan bo'lib, ularsiz kishilarning davlatdagi jamiyatda hamjihatlikda yashashlarining imkoni ham bo'lmas edi. Ana shu qoidalarning bajarilishi kim uchun majburiy? Ushbu mamlakat fuqarolari uchun. Xo'sh, fuqaro o'zi kim?

Mana, katta ko'chadan odamlar ketib borishmoqda. Ulardan qaysilari fuqaro, qaysi birlari fuqaro emasligini qanday bilib olish mumkin?

«Fuqaro» tushunchasi tarixda hamma vaqt ham mavjud bo'lmagan. Qadim-qadim zamonlarda insonning urug'aymoqqa yoki qabilaga mansubligi qon-qardoshlik alomatlariga ko'ra belgilangan. Keyinchalik odamlar jamoalarda yashamay qo'yishganidan so'ng qarindoshlik aloqalari burungi ahamiyatini yo'qotdi. Davlatlar barpo etila boshladi. U yoki bu davlat hududida yashagan kishilar uning fuqarosiga aylanishdi, ya'ni ana shu davlat qonunlariga rioya etish majburiyatini zimmaga olishdi. O'z navbatida, davlat ham qonunlar yordamida o'z fuqarolari xususida g'amxo'rlik ko'rsatib, ularning manfaatlarini muhofaza qila boshladi. Tarixda **insonning davlat bilan huquqiy aloqasini ifodalovchi «fuqarolik» tushunchasi yuzaga keldi.**



Davlat fuqarosi ana shu davlatning umumiy ishlarini hal qilishda ishtirok etish va umumiy ne'matlardan foydalanish bo'yicha alohida huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan kishidir.

Qay tariqa mamlakat fuqarosiga aylanish mumkin?



1. Rasmdagi yoshlar mamlakatimiz fuqarolari deb atalishlari uchun ulardan nima talab qilinadi deb o'ylaysiz?
2. 2-rasmdagi hujjatlarni taniysizmi? Ular kimlarga beriladi? Ularning ichida nimalar yozilgan?

Mamlakatimiz aholisining aksariyati O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridir. Ular tug'ilganlik huquqiga ko'ra, ya'ni davlatimiz hududida tug'ilganliklari uchun fuqaroga aylanishgan.



Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo'lgan «mo'jaz vatan»ning, tug'ilib o'sgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biroq shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga xalaqit beradi.



1. Yurtboshimizning fikrini o'z so'zingiz bilan izohlang.
2. Mahalliychilik qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin deb o'ylaysiz?

Agar kishi mamlakatimizga o'zga bir davlatdan kelsa va O'zbekiston fuqarosiga aylanishni xohlasa, unda bunday odam davlat organlariga ariza bilan murojaat etishi lozim. Ayni mahalda kishini u yoki bu mamlakat fuqarosi deb tan olish davlat uchun ham muhim qadamdir. Shuning uchun ham fuqarolik berish masalalari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarlik qiluvchi maxsus komissiya shug'ullanadi. Mamlakatimizda, shuningdek, boshqa davlatlar fuqarolari — chet elliklar ham yashashadi va mehnat qilishadi. Umuman fuqarolikka ega bo'lmagan odamlar ham bor. Ular fuqaroligi bo'lmagan shaxslar deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi ularning huquq va erkinliklarini xalqaro huquq me'yorlari asosida ta'minlaydi. Chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar saylovlarda ishtirok etolmaydilar, davlat lavozimini egallay olmaydilar, armiyada xizmat qilolmaydilar.



1- topshiriq.

O'zlari fuqarosi bo'lmagan davlat hududida yashab turgan shaxslar duch keluvchi muammolarni ayting. Ana shu odamlarning manfaatlarini kim muhofaza qiladi? Sizingcha, davlat fuqarosi bo'lmagan shaxs nega o'zi yashayotgan hududdagi davlat qonunlarini bajariishi lozim?

Fuqarolarning huquq va burchlari

Mamlakatning butun aholisi: fuqarolar ham, chet elliklar ham, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham davlat umumiy ishlarini hal qilishda ishtirok etishlari, ya'ni aynan: soliq to'lashlari, tabiatni muhofaza etishlari, davlat qonunlari bilan belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining ko'plab fuqarolari boshqa mamlakatlarda ham yashaydilar. Mamlakatimiz umumiy ishlarini hal qilishda ishtirok etish va o'z davlati muhofazasidan foydalanish huquqi ular ixtiyorida saqlanib qoladi. O'zbekiston o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini nafaqat o'z hududida, undan tashqarida ham muhofaza etadi. Agar boshqa davlat hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi qarshisida qandaydir muammo paydo bo'lsa, ular O'zbekiston Respublikasining ana shu mamlakatdagi vakillariga — davlatimiz nomidan zarur yordam ko'rsatuvchi diplomatlarga murojaat etishlari mumkin.



O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

18- modda



O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

21- modda



2- topshiriq.

5-6 kishidan kichik guruhlariga bo'lining.

O'z guruhingizda quyidagi masalalarni muhokama qiling:

1. Qaysi sabablar insonni fuqarolikni o'zgartirishga majbur etishi mumkin?

2. Ana shu vaziyatlar har doim ham majburiymi yoki bu narsa insonning xohish-istagiga bog'liq bo'ladimi?

3. Insonni fuqarolikni almashtirishga majbur etish mumkinmi?

Fuqaro va qonun



«Fuqaro» so'zi biz uchun yana bir ma'no kasb etadi — bu fikr-o'ylari va sa'y-harakatlari Vatan ravnaqiga yo'naltirilgan insondir.

Fuqaro bo'lish nafaqat faxrli, qolaversa, bag'oyat, mas'uliyatli hamdir. Fuqaro degan unvon qonunlar buzilishi, insonga tahqirlovchi munosabat yonidan loqayd o'tib ketmaslikka undaydi. Inson o'z vatani bilan faxrlanar ekan, fuqaro uning nufuzi uchun, kishilar farovonligi uchun butun ruhi va qalbi bilan intiladi, jamoat tartibini o'rnatishda faol qatnashadi, o'z davlati qonunlariga rioya etadi va bu narsani boshqalardan ham talab qiladi. Davlatda loqayd odamlar qancha kam bo'lsa, jamiyat va har bir inson huquq va erkinliklarga putur yetkazilishidan shuncha muhofazalangan bo'ladi.



1. «Fuqaro» tushunchasi qay tariqa vujudga kelgan?
2. Kimni davlat fuqarosi deb ataymiz?
3. Davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qaysi huquqlar bilan bir-biridan farqlanadi?
4. Ekskursiyaga kelgan xorijiy davlat fuqarolari davlatimiz qonunlarini bajarishi majburiymi?
5. Mamlakatimizda yashab turgan xorijiy davlat fuqarosi quyidagi harakatlarni amalga oshira oladimi:
 - prezident saylovida ishtirok etish;
 - bir shahardan boshqasiga borish;
 - o'z huquqlari himoyasi yuzasidan sudga murojaat etish;
 - o'z dini marosimlarini bajarish.




Uyga vazifa.

O'z sinfingiz, maktabingiz, davlatingiz uchun hozir nimalar qila olishingiz mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.



KONSTITUTSIYA VA INSON HUQUQLARI

Insonning asosiy huquqlari



1. Rasmdagi odamlar o'zlarining qanday konstitutsion huquqlaridan foydalanmoqdalar?
2. Qanday huquq turlarini bilasiz?

Inson — yer yuzidagi oliy qadriyatdir.

Tug'ilganidanoq inson yashash huquqi va boshqa huquqlarga ega bo'ladi. Insonning asosiy huquqlari biz har doim ega bo'ladigan va hech kim bizdan tortib olmaydigan huquqlardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bo'limida insonning quyidagi asosiy huquqlari mustahkamlab qo'yilgan, jumladan:

- yashash huquqi;
- erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- qadr-qimmati va sha'nini himoyalash huquqi;
- turar joy daxlsizligi huquqi;
- vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi;
- jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi;
- mulkdor bo'lish huquqi;
- mehnat qilish huquqi;
- ta'lim olish huquqi;

- malakali tibbiy yordamdan foydalanish huquqi;
- madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.



1- topshiriq.

Keling, shahar xarita-chizmasi bo'ylab sayohat qilamiz.

O'zimizga tanish juda ko'p binolarni ko'ramiz: hokimiyat, maktab, kasalxona, pochta, dorixona, do'kon, zavod, fabrika, militsiya va sud idoralari, teatr, kutubxona...

Ana shu muassasalardan har birida qaysi huquqlaringizni ro'yobga chiqara olishingizni belgilang.

Inson huquqlari tarixidan

Kishilar, ana shu huquqlar har kimga oid bo'lishi kerak degan xulosaga birdaniga kelishmagan, albatta. Uzoq asrlar davomida insoniyatning yetuk farzandlari barcha kishilar teng va baxtli bo'ladigan davlat yaratish haqida orzu qilib keldilar. O'rta Osiyoning buyuk faylasufi Abu Nasr al-Forobiy IX asrda «saodat shahri haqida», ya'ni insonning barcha asosiy huquqlariga rioya etiluvchi davlat tuzilishi haqida risola bitgan edi. Ammo turli mamlakatlar hukumatlari har xil sabablarga ko'ra o'z xalqiga buni kafolatlay olmagani tufayli «saodat shahri»ni bunyod etishga hech kim muyassar bo'la olmadi. Ustiga-ustak, mamlakatlar ko'pincha bir-biri bilan o'zaro yovlashar, xunrezlik urushlarini boshlab yuborar edilar. Urush esa hamma vaqt insonni asosiy huquqlaridan mahrum etadi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng, yangi urushlar boshlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jahon xalqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ga birlashdilar. **1948-yil 10-dekabr**da BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qildi. Unda jahon tarixida ilk marotaba insonning asosiy huquq va erkinliklari shakllantirilib, ta'riflab berilgan edi. BMTga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar ularga rioya etishlari lozim.

1992-yil 2-martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy qoidalari kiritilgan. Bu esa davlatimiz ana shu hujjatda e'lon qilingan inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash majburiyatini zimmasiga olgan deganidir.



2-topshiriq.

Sanab o'tilgan harakatlarni o'qing va ulardan qaysi biri sizga inson huquqlariga putur yetkazishi mumkin bo'lib tuyulganini aniqlang. Nega?

1. Maktab bo'yicha navbatchilik qilayotgan katta sinf o'quvchilari shumlik qilayotgan kichkina sinf o'quvchilarini to'xtatishdi, tinchlanishi uchun ular qulog'idan cho'zib qo'yish-di.

2. Bir o'quvchi bola sinfdosh qizni har doim jig'iga tegar va masxara qilib qochardi. Oxir-oqibatda qizcha bolaning boshiga qalin kitob bilan bitta tushirdi.

3. O'quvchi kundaligini uyda esdan chiqarib qoldirganiga ishonmagan o'qituvchi undan sumkasi ichidagi narsalarni ko'rsatishni talab qildi.

4. «Ikki» baho olgan o'quvchi javob tariqasida o'qituvchini so'kdi va yuqori lavozimda ishlaydigan ota-onasi tomonidan unga noxushliklar bo'lajagini aytib dag'dag'a qildi.

5. O'qituvchi mashg'ulot paytida bir o'quvchi boshqasiga uzatgan yozishmani tortib oldi va o'qidi.

6. Direktor o'quvchilarni sevimli musiqa guruhi nomini maktab devoridan o'chirib tashlashga majbur etdi.

7. O'qituvchi tanaffus vaqtida o'quvchilarni keyingi mashg'ulot boshlangunga qadar ushlab turdi.

Ana shu hollarda shaxsiy hayotga aralashish ro'y bergan. Ammo siz, shunga qaramasdan, ko'pincha bu harakatlarni qo-

nun buzilishi deb hisoblamaysiz. Ehtimol, bunda katta yoshdagilarga to'qnash kelganingiz uchun shundaydir. Vaholanki, ana shu vaziyatlardan istalgani, shubhasiz, ko'ngilda noxush asar qoldiradi, ba'zan esa sizning Konstitutsiyada belgilangan huquqlaringizga putur yetkazadi.



Sizning huquqlaringizga qaysi vaziyatlarda va kimlar tomonidan tez-tez putur yetkaziladi? Huquqlardan foydalanish bilan burchlarni bajarish qay tarzda bog'langan?

Bola kattalarga qaram bo'ladi, shuning uchun ham uning huquqlarini alohida himoya qilish lozim. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar bolalar huquqlarini alohida hujjatga ajratdilar va **1989-yil 20-noyabr**da «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»da ularni mustahkamlab qo'ydilar.



3-topshiriq.

1. Sizningcha, har qaysi bola ega bo'lishi kerak huquqlar ro'yxatini tuzing.
2. O'zingiz tuzgan ro'yxatni «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» bilan qiyoslang.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (qisqartma variant)

1-modda. 18 yoshga to'lgunga qadar har inson zurriyoti bola hisoblanadi.

3-modda. Birinchi galdagi e'tiborga va manfaatlari eng maqbul tarzda ta'minlanish huquqi.

6-modda. Yashash huquqi.

7-modda. Ism va fuqarolikka ega bo'lish huquqi, o'z otanasini bilish huquqi va ularning g'amxo'rligiga huquqi.

9—11-moddalar. O'z ota-onasi bilan birga bo'lish huquqi.

13-modda. O'z fikrini erkin bildirish huquqi.

18-modda. Bola tarbiyasi va rivojlanishi uchun ota va onasining mushtarak va bir xil javobgarligi prinsipi.

19-modda. Jismoniy va psixologik zo'ravonlik, tahqirlash va suiiste'mol, g'amxo'rlik ko'rsatilmasligi, beparda yoki qo'pol muomalaning barcha shakllaridan dahlsizlik.

23-modda. Aqliy yoki jismoniy rivojlanishda nuqsonli bolaning alohida g'amxo'rlikka huquqi.

24-modda. Eng mukammal tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi.

27-modda. Jismoniy, aqliy, ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur turmush darajasiga ega bo'lish huquqi.

28—29-moddalar. Ta'lim olish huquqi.

31-modda. Dam olish va bo'sh vaqtdan foydalanish huquqi.

32-modda. Iqtisodiy ekspluatatsiya va bola rivojlanishi uchun zararli ishlarni bajarishdan muhofazalanish huquqi.



Davlatimiz «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ning asosiy qoidalarini Konstitutsiyada mustahkamlab qo'ygan. 45-moddaga ko'ra: «Voyaga yetmaganlar... huquqlari davlat himoyasidadir».



1. Insonning qaysi asosiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan?
2. Nega o'tgan asrlar hukmdorlaridan birortasi ham «saodat shahri»ni bunyod etishga muyassar bo'la olmadi?

3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qaysi maqsadda qabul qilingan edi?
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston fuqarolari uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Sizningcha, nega inson huquqlariga hamma vaqt rioya etilavermaydi?



Uyga vazifa.

«Oiladagi huquq va burchlarim» ro'yxatini tuzing.

MUNDARIJA

Birinchi sayohat

Konstitutsiya — Asosiy qonunimiz.....4

Konstitutsiya

Ikkinchi sayohat

Konstitutsiya8

Davlat va shaxs

Uchinchi sayohat

Davlat nima?.....15

To'rtinchi sayohat

Davlat qay tariqa boshqariladi?20

Beshinchi sayohat

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining
takomillashtirishi22

O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari

Oltinchi sayohat

Hayotimizda ramzlar.....26

Yettinchi sayohat

Davlat ramzlari.....30

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi

Sakkizinchi sayohat

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi.....35

Konstitutsiya va inson huquqlari

To'qqizinchi sayohat

Konstitutsiya va inson huquqlari.....40

KOSTETSKIY V. A., TANSIQBOYEVA G. M., RAHIMOV R. I.

**KONSTITUTSIYA
OLAMIGA
SAYOHAT**

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
5- sinfi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — Yangiyo'l poligraf servis — 2015

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir — *J. Azimov*

Texnik muharrir — *M. Riksiyev*

Sahifalovchi — *K. Kostetskiy*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 22.12.2015. Bichimi 60x90¹/₁₆.
«Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi. Bosma tabog'i 3,0.

Nusxasi 40 000. Buyurtma № 51-15.

**«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxona.
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.**

UO'K: 372.834(075)

KBK: 67.400(50')

K 72

Kostetskiy V.

Konstitutsiya olamiga sayohat : umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun qo'llanma / V. Kostetskiy, G. Tansiqboyeva, R. Rahimov. - Toshkent : Yangiyo'l Poligraf Servis, 2015 - 48 b.

ISBN 978-9943-979-52-9

UO'K: 372.834(075)

KBK 67.400(50')

WWW.NATLIB.UZ